



XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI

TUPROQQA AGDARGICHISIZ ISHLOV BERADIGAN ISHCHI ORGAN KONSTRUKSIYLARI VA ULARGA QO'YILAGAN TALABLLAR

D.B.Irgashev
A.A.Safarov

Annotatsiya. Maqolada tuproqqa ag'dargichsiz ishlov beradigan ishchi organlarni konstruksiyasini tuzilish va ishchi organlarni tupqroqqa ishlov berish jarayonidagi afzalllik va kamchiliklarini taxlil qilingan. Taxlil qilingan ishchi organlarni aksariyat qismi paraplav turidagi ishchi organlarni tuproq bilan o'zoro ta'sirni o'rgangan dunyoning bir qancha olimlarni yaratgan ishchi organlarni tuzilishi va ularda tuproq bilan o'zoro ta'sirlashganda hosil bo'ladigan kuchlarni nazariy taxlillari keltirib o'tilgan.


Kalit so'zlar: konstruksiya, tuproq, paraplav, ustun, yumshatgich, texnologik, uvanish, agrotexnik, bog', ag'dargichsiz.

Kirish. Keyingi yillarda qishloq xo'jaligining bog'dorchilik sohasi rivojlangan mamlakatlarda (Xitoy, Hindiston, Italiya, Koreya, Turkiya, Polsha, Rossiya, AQSH, Kanada, Belgiya, Fransiya, Germaniya) bog' qator oralari tuprog'iga ishlov berishda yarusli chuqur yumshatuvchi qurollar va kombinatsiyalashgan tuproqqa ishlov berish mashinalaridan samarali foydalanib kelinmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bu ushbu konstruksiyadagi ishchi organlarning rivojlantirishning boshlang'ich etapi bo'lib xizmat qilgan. Ishchi organlarning keyingi konstruksiyalarida ular har xil yumshatgichlar bilan jihozlangan (1-rasm).

Bu ishchi organning kamchiligi shundan iboratki diskni ustunga berkitadigan elementlari tez ishdan chiqadi hamda ishchi organni tuproqqa botishi yomonlashadi.




a—old tomondan ko'rinishi; b—yon tomondan ko'rinishi;

1—ustun; 2—ustunning ko'ndalang tekislikda qiya qismi; 3, 4—chetgi nakladkalar;
5—boshmoq; 6—iskana

1-rasm. A.g.1822618 bo'yicha tuproqqa ishlov berish ishchi organi



XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI




1—stoyka; 2—lapa; 3—disk; 4—pichoq; 5—plastina

2-rasm. A.g. 1386062 bo'yicha tuproqqa ishlov berish ishchi organi sxemasi

Hozirgi vaqtida tuproqqa ag'dargichsiz ishlov beradigan ishchi organlarning ko'p sondagi har xil konstruksiyalari mavjud. Olimlar tomonidan ushbu ishchi organlarning prototipi sifatida "paraplav" turidagi ishchi organ qabul qilingan.

2-rasmida o'qyoysimon panjali qatlamlab yumshatadigan ishchi organ keltirilgan. U qiya ustun 1, iskana 2, ustun oldida o'rnatilgan o'qyoysimon panja 3 va qiya lemex 4 dan iborat.

3-rasmida qatlamlab ag'dargichsiz ishlov berish uchun gorizontga nisbatan o'rnatish burchagi o'zgaradigan tekiskesgich panjali ishchi organ keltirilgan. Ushbu ishchi organ qiya ustun 1, iskana 2, yo'naltirgich 3, gorizontga nisbatan o'rnatish burchagi o'zgaradigan tekiskesgich panja 4 qiya lemex dan iborat.




1—ustun; 2—iskana; 3—o'qyoysimon panja; 4—lemex

3-rasm. O'qyoysimon panjali qiya ustunli ishchi organ

G.V. Plyushev qiya ustunli ishchi organga o'ng va chap qanotlarining kengligi har xil bo'lgan tekiskesgich panja o'rnatishni taklif qilgan. Tekiskesgich panjaning ishlov berish chuqurligi 10-12 sm ni tashkil qilib o'simliklar va begona o'tlarning ildizini kesish uchun mo'ljalangan. Tekiskesgich panjaning o'ng va chap qanotlarining kengligi har xil bo'lganligi uchun u o'simliklar va begona o'tlarning ildizini to'liq kesmaydi va yuqori qatlam tuprog'ini to'liq yumshatmaydi.



XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI




1 – ustun; 2 – iskana; 3 –yo‘naltirgich; 4 – tekis panja

4-rasm. Tekiskejch panjali qiya ustunli ishchi organ

4-rasmda I.V. Bojko tomonidan taklif qilingan elliptik yumshatgichli qatlamlab yumshatadigan ishchi organ keltirilgan. Muallifning ta’kidlashicha elliptik halqaning yuzasi va ichida yuzaga keltiriladigan cho‘zilish va egilish deformatsiyalari tufayli kam energiya sarf qilgan holda tuproqni sifatli yumshatadi. 4-rasmda I.V. Bojko tomonidan ko‘rsatilgan ishchi organ iskanasiga o‘rnatilgan qiya lemeksi va elliptik yumshatgichli ishchi organlarning texnologik ish jarayonlari keltirilgan. Unga asosan elliptik yumshatgichli ishchi organ yuqori qatlamni sifatli yumshatadi.

O‘simlik qoldiqlarini kesilishi yarimellips qirrasini ikki tomonlama charxlanishi orqali amalga oshadi. Bunda tashqi qismi 20° - 25° , tashqi qismi esa 30° - 35° burchak ostida charxlangan. 4-rasmda elliptik yumshatgichli ishchi organlarni joylashishi keltirilgan.



1 – ustun; 2 – iskana; 3 –yo‘naltirgich; 4 - elliptik yumshatgich


5-rasm. Elliptik yumshatgichli qatlamlab yumshatadigan ishchi organ

I.V. Bojko tomonidan taklif qilingan tuproqni qatlamlab yumshatadigan yuza ishlov beradigan elementsiz va elemenli ishchi organlar 5-rasmda yuza ishlov beradigan elementli ishchi organning yarim aylanasimon pichoqli ishchi organi yengil tipdagi tuproqlarga sifatli ishlov berishi va o‘rta, og‘ir tuproqlarda sifat ko‘rsatkichlari juda past ko‘rsatkichni ko‘rsatib qarshilikni ortishiga olib keladi.



XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI

Bizning fikrimizcha elliptik yumshatgichning chidamligi past. Bog' oralariga ishlov berishda tuproq va daraxt ildizlari ta'sirida egilishi va uning shaklini o'zgarishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida tuproqning uvanish sifatini yomonlashtiradi.



6-rasm. Tuproqni qatlamlab yumshatadigan ishchi organlarning texnologik ish jarayoni sxemasi

Q
o

v Prof. V.M. Bokov tomonidan tuproqqa ag'dargichsiz ishlov beradigan *L*-simon ishchi organ ishlab chiqilgan (6-rasm). Ushbu ishchi organ pastki qismi egilgan pichoq 2 ga o'tadigan tutqich 1 dan iborat, asos 3 ra ega bo'lgan pichoq 2 g'ing kesish qismiga boltlar 4 yordamida assimetrik tishlar 5 biriktirilgan, tishlar 5 ning yuzasi shunday egilganki u pichoq 2 ning egilgan yuzasini takrorlaydi, ishchi organ tutqichini tekisligi va pichoq 2 ning egilishini hosil qiluvchilari ishchi organ harakat yo'nalishiga mos keladi.

i Mualliflar tomonidan olib borilgan tajribaviy tadqiqotlarni ko'rsatishicha mavjud ish organiga nisbatan taklif qilingan ish organining tortishga qarshiliqi 20-22% kam, haydov qatlamiagi tuproqning uvalanishi (50 mm kichik o'lchamdag'i fraksiyalar) 80-90% ni tashkil etadi.

s Rossiyada A.M. Saldayev va A.P. Sapunkovlar tomonidan takomillashgan chuquryumshatgich taklif qilingan. Chuquryumshatkichning tutqichida (6-rasm)



XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI

yechib olinadigan pichoqlar, tutqichning qiya qismida esa tuproq deformatorlari o‘rnatilgan, ularning fikricha chuquryumshatkichning bunday konstruksiyasi tuproq intensiv uvalanishini ta’minlaydi. Ushbu ishchi organ murakkab konstruksiyaga ega bo‘lib, uning parametrlari nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida tadqiq etilmagan.

Yuqorida o‘tkazilgan tahlillarning ko‘rsatishicha mamlakatimizda hozirgi kungacha bog‘ qatorlari oralariga ag‘dargichsiz ishlov beradigan takomillashgan qiya ustunli ishchi organlar bilan jihozlangan plug-yumshatkichning kam energiya sarf qilgan holda tuproqni uvanish darajasi agrotexnik talab darajasida ta’minlaydigan parametrlarini asoslash masalalari yetarlicha o‘rganilmagan.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, bog‘ oralariga ag‘dargichsiz asosiy ishlov berishda plug-yumshatgichga quyidagi talablar ishlab chiqildi

Ishlash sharoitiga qo‘yiladigan talablar:

plug-yumshatgichning solishtirma qarshiligi 0,06 MPa gacha bo‘lgan turli mexanik tarkibga ega bo‘lgan tuproqlarda ishlatilishi lozim;

plug-yumshatgich ishlatiladigan maydonlar o‘simlik qoldiqlaridan tozalangan yoki ular ko‘pi bilan 10 cm uzunlikdagi bo‘laklarga maydalanib, dala bo‘ylab sochilgan, don va ozuqa ekinlaridan bo‘shagan maydonlarda ang‘iz balandligi 10 cm gacha bo‘lishi mumkin;

dalalarda plug-yumshatgichni tiqilib qolishiga sabab bo‘ladigan miqdordagi maydalanmagan palak va poyalar bo‘lmasligi lozim;

sug‘orish uchun olingan egatlarning chuqurligi 20 cm dan ortiq bo‘lmasligi lozim;

yerlarning haydov qatlamidagi namligi 14-18 % oraliqda bo‘lishi, qattiqligi esa 3 MPa dan ko‘p bo‘lmasligi kerak;

plug-yumshatgich ishlaydigan dala yuzasining qiyaligi ko‘pi bilan 8° gacha bo‘lishi ruxsat etiladi;

Bajariladigan texnologik jarayonga qo‘yiladigan talablar:

plug-yumshatgich 28 cm chuqurlikkacha ag‘dargichsiz shudgorlashni ta’minlashi kerak. Bunda belgilangan ishlov berish chuqurligidan chetlashish ± 2 cm dan ortmasligi lozim;

fizik jihatdan yetilgan, ya’ni namligi 16-18 % bo‘lgan yerlarga ishlov berilganda o‘lchami 50 mm dan kichik bo‘lgan tuproq fraksiyalar miqdori 80 foizdan kam bo‘lmasligi lozim;

o‘simlik qoldiqlarini dala yuzasida saqlanib qolishi 50 % dan kam bo‘lmasligi kerak;



XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI

plug-yumshatgich maqbul namlikdagi (16-18 %) tuproqqa ishlov berganda shudgor yuzasida hosil bo‘ladigan notekisliklar balandligi ±10 cm, egat tubidagi do‘ngliklar balandligi 5 cm dan katta bo‘lmasligi kerak;

plug-yumshatgich haydov chuqurligi va qamrash kengligi bo‘yicha turg‘un harakatlanishi kerak;

plug-yumshatgichning haydov chuqurligi va qamrash kengligi bo‘yicha variatsiya koeffitsiyenti 10 % dan oshmasligi kerak;

plug-yumshatgichning ish organlariga tuproq yopishib qolmasligi va o‘simplik qoldiqlari tiqilib qolmasligi kerak.

Xulosa. Bog‘ oralari tuprog‘iga asosiy ishlov berishning texnologiyalari va agregatlarining konstruksiyalarini rivojlanishi holati va tendensiyalari hamda o‘tkazilgan tadqiqotlarning tahlili mavjud mashinalarning konstruksiyalari va ular bajaradigan texnologik jarayonlarni zamon talabida emasligini ko‘rsatdi. Bog‘ oralariiga asosiy ishlov berish mavjud ag‘dargichli pluglardan foydalanish maqsadga muvofiq emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бурченко П.Н. Современные тенденции и перспективы развития механизация обработки почвы // Проблемы механизации с.-х. производства. – М.: ВИМ, 1985. – 85 с.
2. Бурченко П.Н. Механико-технологические основы почвообрабатывающих машин нового поколения. – Москва: ВИМ, 2002. – 212 с.
3. Токушев Ж.Е. Теория и расчет орудий для глубокого рыхления почв. –М.: ИНФРА. – М, 2003. – 132 с.
4. Сакун В.А. Техника для основной обработки почвы при возделывании с. х. культур по интенсивным, индустриальным, энергосберегающим и почвозащитным технологиям. – М.: МИИСП, 1986. – 47 с.
5. Кряжков В.М., Бурченко П.Н. Основные тенденции развития механизации обработки почвы// Теория и расчет почвообрабатывающих машин: Сб. научн. трудов ВИМ. – Москва, 1989. – Том 120. – С. 6-12.
6. Плющев Г.В. Исследование проссеа глубокого рыхления почвы и выбор оптимальных параметров рабочего органа пропашного культиватора-глубокорыхлителя для южной опрошаемой зоны земледелия. Дисс. ... канд.техн. наук. – Алма-Ата, 1973. – 150 с.
7. Борисенко И.Б., Новиков А.Е. Энергосбережение при основной обработке почвы// Вестник Российской академии сельскохозяйственных наук. – 2009. – № 3. – С. 28-31.



XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI

8. Божко И.В. Обоснование параметров эллиптического рыхлителя рабочего органа для послойной безотвальной обработки почвы.// – Зерноград, 2014. – 177 с.
9. Романюк Н.П., Нукушев С.О., Тойгамбоев С.К., Теловов Н.К. Оригинальный глубокорыхлитель для улучшения свойств плодородного слоя почвы. – АгроИнженерия. – С. 1-3.
10. O‘zbekiston respublikasi prezidentining qarori meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘silgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida.
11. Bog‘dorchilik va tokchilik uchun spravochnik. Ribakov A.A taxri ostida / T-1959 у.
12. Irgashev D.B. Plug-yumshatkich ish organlarining ramada joylashish sxemasini asoslash // Agro ilm – O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi. Maxsus son. 2022.
13. Bog‘ va tokzor agrotexnikasi. Mirzayev M.M, Temurov SH.S/ T-1978 у.
14. Mamatov F.M., Fayzullayev X.A., Irgashev D.B., Mustapaqulov S.U., Nurmanova M.S Kombinatsiyalashgan mashina chuquryumshatkichlari orasidagi bo‘ylama masofasini asoslash.// Innovatsion texnologiyalar Maxsus son, 2021. – B. 125-129.
15. Ismadiyarov, Y., Nabiulina, L., Matnazarova, M., Mulahmetov, R., Suleimenova, U., & Satimbekova, A. (2021). Multicomponent Structural and Logical Model of Innovative Management in Higher Education and the Mechanisms for its Implementation. Известия высших учебных заведений. Технология текстильной промышленности, (3), 187-195.
16. Uzumchilik Ma’ruzalar matni .Temurov SH.S / T-2002 у. 12. Плюшев Г.В. Исследование процесса глубокого рыхления почвы выбор оптимальных параметров рабочего органа пропашного культиватора-глубокорыхлителя для орошаемой зоны земледелия: Автореф.дисс... канд.тех.наук. – Москва, 1974. – 25 с.
17. Орсик Л.С. Обоснование схемы и параметров безотвального плуга-рыхлителя с наклонными стойками рабочих органов. Дисс. к.т.н. – М.: 1988. – 186 с
18. Ismadiyarov, Y., & Nabiulina, L. (2019, November). Informational ensuring innovative management of higher education system. In 2019 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-5). IEEE.